



**"Nomdor stipendiyalar olish bo'yicha tanlovga ariza berish"
interaktiv xizmati reglamenti**

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat nomlanishi:

Qisqa nomi: "Nomdor stipendiyalar olish bo'yicha ariza berish"

Kengaytirilgan nomi: Andijon davlat universiteti (AndDU) rasmiy sayti orqali "Nomdor stipendiyalar olish bo'yicha ariza berish" interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi:

Farg'ona davlat universiteti iqtidorli talabalaridan "Nomdor stipendiyalar olish bo'yicha tanlov"ga arizalarni electron tarzda qabul qilish.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti

1.4. Huquqiy asoslari:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'isida" 226-sonli qarori.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Xizmatdan universitetning iqtidorli talabalarini foydalanishi mumkin.

Stipendiyalarni tayinlash uchun quyidagi mezonlarni bajarish belgilanadi:

- a'lo o'qish va ilmiy (ijodiy) ishlarda ishtirok etish;
- tillarni davlat tili va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni bilish, bajarilishdagi ta'lim yo'naliishi xorijiy til hisoblangan alohida hollarda qo'shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan shaxslar uchun esa o'qish olib boriladigan tilni qo'shimcha ravishda bilish talab qilinadi.

1.6. Ariza berish muddatlari:

Belgilangan muddatda

1.7. Bajarish muddatlari:

5 kun

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etish

2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi:

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat etgan har qanday foydalanuvchiga quyidagi axborot taqdim etiladi:

- universitet joylashgan joy, ish tartibi, murojaatlarni ko'rib chiqish shartlari va tartibi haqidagi ma'lumot;
- xizmatdan foydalanish uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati;
- ariza blankasini to'ldirish tartibi haqida ma'lumot;
- xizmatdan foydalanish muddatlari;
- xizmatning reglamenti mavjudligi to'g'risida ma'lumot.

2.2. Batafsil ma'lumot olish:

Andijon davlat universitetining rasmiy sayti orqali.

2.3. Xizmatni ko'rsatish manzili haqida ma'lumot olish:

Andijon shahar Universitet ko'cha 129-uy

3. Ish vaqtлari va murojaat javoblarini kutish vaqtлari.

3.1. Ish vaqtлari:

Xizmat ko'rsatuvchining ish vaqtı dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰ga qadar.
Murojaat dam olish kunlari yoki bayram kunlari kelib tushgan taqdirda, ularni ko'rib chiqish keying ish
kunidan boshlanadi.

3.2. Murojaat javoblarini kutish vaqtłari:

5 ish kuni

4. Xizmat ko'rsatish tartibi.

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar:

Talabalar dastlabki ko'rib chiqish uchun electron arizada quyidagilarni taqdim qiladilar:

- ERI (elektron raqamli imzo);
- Dekanat, kafedraning tavsifnomasi;
- Ilmiy (ijodiy) ish rahbarinig fikr-mulohazasi;
- Tillar kafedrasining suhbatni natijalari haqidagi ma'lumotnomasi.

4.2. Xizmat to'lovi:

Bepul

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy web saytiga kiriladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Nomdor stipendialar olish bo'yicha tanlovga ariza berish" xizmati
tanlanadi;
3. Arizachining shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL), ta'lim yo'nalishi, kursi haqidagi ma'lumotlar
kiritiladi;
4. Arizachi tomonidan universitetning "Talabalar o'zlashtirish haqida ma'lumot olish" tizimidan fanlar
bo'yicha o'zlashtirilgan baholar belgilanadi va talab etilgan xujjalarning electron nusxasi ilovda qilinadi
5. Ommavoiy oferta bilan tanishganlik tasdiqlanib "Elektron raqamli imzo bilan yuborish" funktsiyasi
tanlanadi va ariza yuboriladi.

4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:

Talabaning reyting ma'lumotlarini olishda universitetning "Talabalar o'zlashtirish haqida ma'lumot
olish" tizimi ma'lumotlar bazasidan foydalananadi va universitet ichki guruhi murojatlarni ko'rib chiqadi.
Agar murojaat etuvchi tomonidan so'rallagan ma'lumotlar bazadan topilmasa, mas'ul xodim (mas'ul
xodimning F.I.O. lavozimi, telefon raqami) tomonidan arizachining electron pochta manziliga bu haqida
ma'lumot jo'natiladi. Mas'ul xodim qayta tahlil qilgandan keyin 3 kun ichida talabaning reyting baholari
haqidagi ma'lumotlarni dekanatdan oladi va tizimga kiritadi hamda talabaga arizalar qabul qilinganloigi
to'g'risida ma'lumotnomasi taqdim etiladi.

Arizaga rad javobi berilsa rad etish uchun asoslar murojaat qiluvchiga yuboriladi.

Talaba "Nomdor stipendialar olish bo'yicha tanlov"ga jo'natilgan ariza qabul qilinganligi haqidagi
xabarni olganidan keyin, ilova qilingan xujjalarning asl nusxasini 1 (bir) kun ichida universitetga taqdim
qilishi kerak.

4.5. Rad etish sabablari:

Ma'lumotlar noto'g'ri kiritilganligi

5. Xizmat ko'rsatish sifati.

5.1 Shikoyat arizasini berish tartibi

Rad etish hollarida arizachi yuqori turuvchi tashkilotga qonunda ko'rsatilgan tartibda murojaat etish
mumkin.

"KIRITILDI"

Ilmiy bo'lim boshlig'i

A.Imirsinova

" 01 " 11 2017 y.

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari

v.v.b. N.Mirzaalimov

" 01 " 11 2017 y.